

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-iyul oylari uchun

- I.** Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II.** Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III.** Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV.** Kichik biznes tadbirdorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V.** Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1-avgust holatiga ko'ra viloyatda 2 976 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 618 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligining 20,8 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 583 tasi (19,6 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 307 tasi (10,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 281 tasi (9,7 %) kiyim ishlab chiqarishga, 233 tasi (7,8 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 181 tasi (6,2 %) mebel ishlab chiqarishga, 178 tasi (6,0 %) to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- avgust holatiga ko'ra





II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda korxonalarini tomonidan 26 748,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,9 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	26 748,8	106,9
Qarshi sh.	2 706,6	99,7
Shahrisabz sh.	466,4	105,8
tumanlar:		
G'uzor	2 781,3	106,1
Dehqonobod	648,9	102,5
Qamashi	452,8	100,3
Qarshi	1 412,5	99,3
Koson	932,1	107,7
Kitob	996,7	102,3
Mirishkor	690,4	107,4
Muborak	657,3	109,0
Nishon	7 476,8	114,8
Kasbi	1 394,1	104,9
Ko'kdala	179,0	106,9
Chiroqchi	507,8	99,7
Shahrisabz	700,0	107,1
Yakkabog'	507,3	90,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


- [Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (43 589,8 ming so'm), G'uzor tumanida (12 195,1 ming so'm), Qarshi shahrida (8 955,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 315,3 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nishon tumanida (112,1 %), Muborak tumanida (106,9 %), Shahrisabz tumanida (105,3 %), Koson va Mirishkor tumanlari (105,2 %), G'uzor va Ko'kdala tumanlarida (103,8 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar- iyul oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar- iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 21 184,1 mlrd, so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (77,8 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1 147,8 mlrd, so'm (4,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 4 276,7 mlrd so'm (16,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 140,1 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025- yilning yanvar-iyul oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 18,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 13,1 % ga ko'paygan), 40,5 ming tonna ip kalava (2,1 % ga ko'paygan), 827,5 ming litr aroq mahsulotlari (22,1 % ga kamaygan) hamda 122,8 ming tonna kaliy xlorid (1,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar-iyul*	2025- yil yanvar-iyul*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	19,8	16,4	18,5
ip kalava, ming tonna	36,7	42,0	40,5
Aroq, ming litr	1168,6	1062,0	827,5
Kaliy xlorid, ming t.	115,8	124,2	122,8
Dizel yoqilg'isi, ming t.	241,7	235,0	296,1
Poliyetilen, ming t.	79,3	84,2	83,7
Neft, ming t	6,8	6,4	5,3
Tabiiy gaz, mln kub.m.	49,4	37,5	252,8
Gaz kondensati, ming t.	62,5	66,9	69,2
Portlandsement, ming t.	856,9	933,4	913,4

*2024-2025- yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,0 % (2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 62,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024- yilning yanvar-iyul oylarida 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,2 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 33,3 % (28,3 %), quiyi texnologiyali 49,9 % (53,0%) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 137,3% ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 75,8% ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar-iyul*	2025- yil yanvar-iyul*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	4 749,8	4 407,5	3 998,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 890,7	2 063,8	2 063,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,1 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,4 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul*	2024- yil yanvar-iyul*	2025- yil yanvar-iyul*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	74 994,5	114 875,5	140 146,3
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	6 289,4	21 773,2	34 053,6

*2024-2025- yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 793,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 30,2 % ni tashkil etgan.





V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; c) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; d) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
75 221-32-36 (7010)